

“O‘ZBEK MILLIY MUSIQA MADANIYATIDA DOIRA SAN’ATINING FALSAFIY-ESTETIK TALQINI”

Abdulhamid Mamatqulov

Teacher at Gulistan State University

Annotatsiya : Mazkur maqolada doira san’atining tarixiy-falsafiy va estetik mohiyati, uning xalq hayoti, ruhiy olami hamda musiqiy tafakkurdagi o’rni yoritilgan. Unda Usta Olim Komilov maktabi, doira usullarining shakllanish bosqichlari, ritmik-semiotik tizimi, “Shashmaqom”dagi funksional ahamiyati va marosimiy hamda shamanistik ildizlari ilmiy tahlil etiladi. Maqola doirani milliy madaniyat fenomeni sifatida talqin etadi.

Kalit so‘zlar: doira, zarbli cholg‘u, ritm, usul, Shashmaqom, Usta Olim Komilov, musiqiy tafakkur, madaniy arxetip, ritmik-semiotik tizim, milliy meros, estetik qadriyat, ijrochilik maktabi, marosim madaniyati, falsafiy dinamizm, pedagogik an’ana.

THE PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC INTERPRETATION OF THE DOIRA ART IN THE UZBEK NATIONAL MUSICAL CULTURE

Annotation: This article explores the historical, philosophical, and aesthetic essence of the *doira* art, highlighting its role in the life, spiritual world, and musical thinking of the Uzbek people. It provides a scholarly analysis of the Usta Olim Komilov school, the stages of formation of *doira* rhythmic techniques, its rhythmic-semiotic system, functional significance within *Shashmaqom*, as well as its ritualistic and shamanistic origins. The article interprets the *doira* as a phenomenon of national culture.

Keywords: doira, percussion instrument, rhythm, *usul*, *Shashmaqom*, Usta Olim Komilov, musical thinking, cultural archetype, rhythmic-semiotic system, national heritage, aesthetic value, performance school, ritual culture, philosophical dynamism, pedagogical tradition.

Men yillar davomida doira sozini o’rgatib kelar ekanman, bu cholg‘u asbobining nafaqat musiqa, balki xalq hayoti va ruhiy dunyosidagi o’rni naqadar beqiyosligini tobora chuqurroq his etdim. Doira — bu oddiy gardish emas, balki xalqning yurak urishidir. O‘zbek, tojik va uyg‘ur xalqlarining madaniyatida doira asrlar davomida quvonch va g‘am, to‘y va sayil, kurash va marosimlarda sado bergan. Har bir viloyatda bu cholg‘uning nomi, ohangi, chalish usuli turlicha. Xorazmda “dapp”, Farg‘onada “chirmanda”, Samarqandda “doira” deyiladi. Lekin ularning ruhi bir — milliylik, xalqona zavq. Men yoshlarga dars berganda doirani nafaqat urib chalishni, balki uning jonini eshitishni o’rgataman. Chunki bu asbob har bir zarbda bir tarix, bir hisni yashirgan.

Bizning yurtimizda doira ijrochiligining asoschisi, ustozlarning ustoziga aylangan Usta Olim Komilov merosi o‘zgacha maktabdir. Uning an‘analarini G‘ofur Azimov, Rahim Isaxo‘jayev, To‘ychi Inog‘omov, Qahramon Dadayev kabi mohir ustalar davom ettirdilar. Ularning ijrosida doira nafaqat zarbli soz, balki ohangni, ritmni, yurak urishini ifodalovchi asbobga aylandi. “Bum” va “Bak” tovushlari orasidagi farq — bu shunchaki past yoki baland zarba emas, bu — yurak urishidagi ikki xil hayajon. “Bakka”, “Taka” kabi ritmik ifodalar — bu qadimiy usullarimizning jonidir. Avvallari bu belgilarni og‘zaki an‘ana orqali o‘rganganmiz, keyinchalik A.I. Petrosyans va boshqa musiqashunoslar

doira usullarini yozuv tizimiga kiritib, to'rt qatorli nota yo'llarida ifodaladilar. Bu esa o'qituvchilar uchun katta qulaylik yaratdi.

Doira — o'zbek xalqining eng qadimiy zarbli cholg'ularidan biri bo'lib, u ming yillik tarix davomida xalqning ma'naviy-madaniy evolyutsiyasi jarayonida shakllanib, milliy musiqiy tafakkurning ajralmas komponentiga aylangan. Ushbu cholg'u vositasi xalq hayotining turmush tarzidan tortib, marosimiy-madaniy amaliyotigacha chuqur singib ketgan bo'lib, u inson va borliq o'rtasidagi ritmik uyg'unlikning timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Doira ijrochiligi o'zining ritmik-metrik tizimi, tembral boyligi va zarblarning semantik ifoda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Unda mavjud usullar tizimi xalqning ichki ruhiy holatini, ijtimoiy kayfiyatini hamda estetik qarashlarini ifodalovchi madaniy semiotika sifatida qaraladi. Shu boisdan ham doira nafaqat musiqa asbobi, balki xalq ruhiyatining metaforik aks-sadosi, madaniy arxetipi sifatida qadrlanadi.

Asrlar osha jilolangan doira san'ati "Shashmaqom" tizimining ritmik-estetik asosini tashkil etadi. Maqom yo'llarida cholg'u va ashula bo'limlarining intonatsion-dinamik tuzilmasini ochishda doira usullari hal qiluvchi o'rin egallaydi. Ayniqsa, maqomlarning variasion tuzilishida doira usullari musiqiy tafakkurning ritmik logikasini belgilab, ijrochilik jarayoniga falsafiy dinamizm baxsh etadi.

Doira san'atining shakllanishi va rivoji jamiyatning ijtimoiy-estetik taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lib, u xalq ma'naviyatining musiqiy ifodasi sifatida turli davrlarda yangi usullar, yangi estetik talqinlar bilan boyib borgan. Har bir davr o'zining madaniy paradigmasini doira ijrosida aks ettirgan — bu esa musiqaning tarixiy-falsafiy sintezi sifatida namoyon bo'ladi. Hozirgi kunda o'zbek musiqa ijrochiligida doira usullari oddiy va murakkab shakllarda tasniflanadi. Oddiy usullar ko'proq marosimiy va xalq qo'shiqlari ("lapar", "yor-yor", "ashula")da qo'llanilsa, murakkab usullar maqom, katta ashula, va ansambl asarlarida ritmik-melodik konstruksiyaning asosiy tayanchini tashkil etadi.

Manbalarda keltirilishicha, birinchi yaratilgan musiqa usuli "Zarbul-qadim" ("Qadimiy zarb") deb ataladi. Bu usul inson tomirining urishidan olingan bo'lib, sodda "tan-tan" shaklida bo'lgan. Keyinchalik esa usullarning murakkabroq shakllari yuzaga kelgan. Masalan, "tana-tana", "tantan-tan", "tana-tana-tan" va hokazo. Bu usullar musiqa asarlari bilan birga yuzaga kelgan bo'lib, keyinchalik Sharq xalqlarida mustaqil doira usullari tarzida ajralib chiqqan. Darhaqiqat musiqiy asar ijrosi paytida doirachi sahnadagi barcha ijrochilarning boshqaruvchisi hisoblanadi. Doirachining ijro etgan birgina usulidan kuyning tempi, ritmi ma'lum bo'ladi. Shu bois doirachiga katta mas'uliyat yuklanadi. Musiqiy asarning boshlanishidan yakuniga qadar doira ijrochisidan avvalo usulni bir maromda ushlash talab etiladi. Tarixiy manbalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, doira cholg'usi o'tmishda, xususan, zardushtiylik davrlarida ayollar orasida keng qo'llanilgan. Baxshi ayollar odamlarni davolashda, diniy marosimlarda doira cholg'usidan foydalanganlar. Bunday xususiyatlar shamanlar faoliyatida ham kuzatilgan. Ular ham inson tanasidan yovuz ruhlarni chiqarish, kasallikni davolash, olovga va ajdodlar ruhiga sig'inish, qurbonliklar qilish, zikrga tushish kabi turli marosimlarida doira chalganlar. Doiraning yangrashi o'tkazilayotgan marosim ruhini kuchaytirishga, ekstaz (jazavaga tushish) holatiga yo'naltirishga xizmat qilgan. O'sha davrlardagi ayrim marosimlar bugungi kunda ham chekka vohalarda o'z kuchini saqlab qolgan. Doira ijrochiligi vujudga kelishi, uning rivoji jarayonida yurtimizning har bir hududida o'ziga xos mahalliy ijrochilik uslublari shakllandi. Mazkur uslublarda har bir vohaning o'ziga xos xususiyatlari, e'tiborga molik tomonlari hamon o'z mohiyatini saqlab kelmoqda. Bularga Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Buxoro – Samarqand hududlariga xos ijrochilik uslublari misol qilib keltirishimiz mumkin.

Doira san'ati o'zbek xalqining ma'naviy-madaniy merosida markaziy o'rin egallagan bo'lib, u nafaqat zarbli cholg'u, balki xalqning ritmik tafakkuri, ruhiy kechinmalari va estetik qadriyatlarining badiiy ifodasidir. Tadqiqot davomida doiraning tarixiy ildizlari, ritmik-semiotik tizimi, "Shashmaqom"dagi funksional o'rni hamda Usta Olim Komilov maktabining an'anaviy va pedagogik ahamiyati yoritildi. Doira san'ati milliy musiqaqning falsafiy asoslarini, xalq hayotining ruhiy energiyasini mujassamlashtiradi. Shu bois, uni nafaqat ijrochilik, balki madaniyatshunoslik va pedagogika nuqtai nazaridan ham chuqur o'rganish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. THE EMERGENCE OF THE "CIRCLE" INSTRUMENT B. Tursunov "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 4 / December 2021
2. Mamatkulov, O., Mamatkulov, A., & Mamatkulova, M. (2022). INSTRUMENTAL PERFORMANCE IS AN IMPORTANT ASPECT TO CONSIDER IN THE LEARNING PROCESS. OBSERVATIONAL ANALYSIS OF CHILDREN AND STUDENTS OF CHILDREN'S MUSIC SCHOOLS. Eurasian journal of social science, philosophy and culture, 2(6), 113–115. izvlecheni ot <https://in-academy.uz/index.php/ejsspc/article/view/2694>
3. Tursunov B. Emergence of "Doira" instrument. Oriental Art and Culture scientific-methodical journal, 2021, No. 4, Volume 2.
4. Komilov, U. Uzbek folk instruments. Tashkent: G.Ghulom Publishing House of Literature and Art, 1981.
5. Isakhojayev R. School of Circle Performance. Tashkent: Publishing House of the Conservatory of the Republic of Uzbekistan, 2005.
6. Petrosyans A.I. Rhythm and Metro in the Music of the Peoples of Central Asia. Moscow: Muzyka, 1972.
7. Azimov G. Teaching Methods of Circle Art. Tashkent: San'at, 2012.
8. Nazarov A. Uzbek Maqoms and Their Rhythmic System. Tashkent: Fan, 1998.
9. Komilov, N. Philosophy of Music. Tashkent: Ma'naviyat, 2003.